

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 8-avgustdagi “Yoshlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi 349-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash uchun universitet rektorining 2023-yilning 10-avgustdagi 182-UM-son burug‘i imzolandi.

Mazkur buyruqlar ijrosi yuzasidan universitetda bir qator ishlar amalga oshirildi:

2023/2024-o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Yoshlar akademiyasi” o‘z faoliyatini boshladi.

Akademiya faoliyatini “Yoshlar akademiyasi liderlari” tizimi amalga oshiradi.

Liderlar 2-bosqichda faoliyat yuritadi:

Yoshlar akademiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti lideri

Yoshlar akademiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti fakultet liderlari

Yoshlar akademiyasi universitet lideri saylash uchun saylov bo‘lib o‘tdi. Saylovda talabalar o‘zlari uchun lider saylab olishdi. O‘tkazilgan saylov natijasiga ko‘ra Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti Turizm yo‘nalishi talabasi Yusupov Muhammadayub Maxsudjon o‘g‘li eng ko‘p ovoz bilan universitet lideri etib saylandi.

20-oktabr kuni TDSHUda “Yoshlar akademiyasi” forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda yetakchi olimlar, mahoratli mentorlarning ma‘ruza va mahorat darslari tashkil qilindi.

Forumning birinchi qismida yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun TDSHU Janubiy Koreya Yeungnam universiteti bitiruvchisi, Yeungnam universitetida ko‘p yillar dars bergan, 17 Hirsch indexga ega, 30 ga yaqin Scopus jurnallarida maqola nashr qilgan Markaziy Osiyo universiteti (Central Asian University) professori Alisher Dedahanovning “Ijtimoiy sohalarda tadqiqot olib borish uslublari” mavzusidagi ma‘ruzasi bo‘ldi.



TDSHU va Yaponiyaning Vaseda universiteti bitiruvchisi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining (GIZ) “Yashil sanoatlashtirish” loyihasi kengashi eksperti Juraxo‘jaev Bobur talabalar uchun “Barqaror rivojlanish uchun startaplar” mavzusida ma’ruza qildi.



“Yoshlar akademiyasi” Forumida U-ENTER Innovatsion markazi treniri Ilhom Aliyev talabalarga U-enter - Koica hamkorligida tashkil etilgan inkubatsiya-akselyaratsiya faoliyati haqida ma’lumot berdi.





“Yoshlar akademiyasi” Forumining uchinchi ma’ruzachisi Accelerator CAT 4.0 g‘olibi, Yoshlar akademiyasi a’zosi, startap loyihalar bo‘yicha mentor **Kamoliddin Kushbakov** bo‘ldi. Mentor talabalarga “Startap loyihani amalga oshirishning asosiy sirlari” mavzusida seminar-trening o‘tib berdi.



Tadbirning ikkinchi qismida “*Yoshlar akademiyasining TDSHUdagi faoliyati*” mavzusida Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i PhD **Laziz To‘rayev** so‘zga chiqib universitetda Yoshlar akademiyasi bo‘yicha qilinayotgan barcha ishlar haqida ma’ruza qildi va ma’ruza oxirida talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berildi. <https://tsuos.uz/tdshuda-yoshlar-akademiyasi-forumi-doirasida-maruza-va-mahorat-darslari-bolib-otdi/>




**YOSHLAR AKADEMIYASI TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI VA FAKULTETI LIDERLARI**

<b>№</b>	<b>OTM nomi</b>	<b>OTM lideri FISH</b>	<b>Tug‘ilgan sanasi</b>	<b>Mutaxassisligi</b>	<b>kurs</b>	<b>Rasmi</b>	<b>Erishgan yutuqlari</b>
<b>TDSHU lideri</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Yusupov Muhammadayub Maxsudjon o‘g‘li	25.11.2003	Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ) Koreys-ingliz o‘zbek	2		<p>‘Innovatsion g‘oyalar’ konferensiya spikeri, ‘UzTour Guide’ startup go‘ya muallifi 2016-yil 6-sinfda Bilimlar bellashuvi da Ingliz tilidan tuman ikkinchiligi.</p> <p>2016-2017 yillarda Sportning Shaxmat turi bo'yicha 2 karra tuman chempioni</p> <p>2018-yildan beri muassasalarda Yoshlar Ittifoqi faoli.</p> <p>"Ibrat" loyihasi 2-sezoni voluntari</p> <p>2023-yil Yoshlar Ittifoqi tomonidan tashkil etilgan "Ma'naviyat haftaligi" faoli.</p> <p>2023-yil tashkil etilgan "Xalqaro Geografik tadqiqotlar: Innovatsion go'yalar" nomli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya spikeri.</p>
<b>XITOYSHUNOSLIK</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Shavkatova Mehribon Olimjon qizi	09.11.2005	Xitoyshunoslik fakulteti	1 kurs		<p>“Xitoy tili notiqlik san'ati” tanlovida Respublika bosqichida 3-o‘rin, Konfutsiy institutida o‘tkazilgan, “Xitoy she'riyati” tanlovida 1-o‘rinni egallaganman, Xitoy tilidan til bilish darajasi HSK 4ga ega (HSK-213 HSKK-66)</p>

<b>SHARQ MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI, SIYOSATI VA TURIZM</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Ibragimova Dilruzaxon Akmal qizi	26.10.2003	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ) Arab-nemis (Rus)	3		“Ogahiy” nomidagi stipendiya sovrindori
<b>SHARQ SIVILIZATSIYASI VA TARIXI</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Mustafoyeva Mushtariy Zohidjon qizi	03.04.2003	Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi	3-kurs		A'lochi, faol, bir qator tanlovlar g'olibi, ilmiy maqolalar muallifi
<b>KOREYASHUNOSLIK</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Jongirova Gulhayot Samandar qizi	12.05.2004	Filologiya tillarni o'qitish koreys-ingliz	2-kurs		“Sharqshunos lider qizlar” klubi a'zosi, “Monolog” loyihasi muallifi, “Why TSUOS” loyihasi muallifi, “TSUOS tayanchi” loyihasi koordinatori, “Qizlar ovozi” respublikaviy klubining Mirobod tumani IT va media yo'nalishi koordinatori, O'zbekiston yoshlar ittifoqi universitet Koreyashunoslik fakulteti koordinatori o'rinbosari, “Qalb nuri” xayriya loyihasi yordamchi assistant, Turkiyaning Baygench Yayinchilik nashrda chiqqan

							“O‘zbekistonning iqtidorli ovozlari” antologiyasida ijodiy ishi chop etilgan
<b>YAPONSHUNOSLIK</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Odilov Og‘abek Odil o‘g‘li	20.12.2002	Yaponshunoslik	3		2022/2023 o‘quv tilida Ogahiy nomidagi maxsus stipendiya sohibi, "Shoislom Shomuhamedov" nomidagi yosh sharqshunoslarning VII forumida eng yaxshi maqola, "Evrika" dasturi ishtirokchisi.
<b>TURKSHUNOSLIK</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universitet	Ismandiyarova Gulshan Asqar qizi	24.05.2003	Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik	3		<p>2018 - yil Matematika fan olimpiadasi viloyat bosqichida 3- o‘rin sohibasi.</p> <p>2017-2019- yillar Jizzax viloyati G‘allaorol tumani 66- umumiy o‘rta ta’lim Yoshlar Ittifoqi bosh sardori</p> <p>2020-2021-yillar S H Sirojiddinov akademik litseyi yoshlar ittifoqi bosh sardori</p> <p>2019- yil Tumanning Eng faol sardorlari tanlovi 1- o‘rin g‘olibasi</p> <p>2018- yil “Yosh huquqshunoslar” viloyat bosqichi 3- o‘rin sohibasi 2022-2023-yillar Turkshunoslik fakulteti yetakchisi o‘rinbosari va fakultet gender tengligi boyicha raisi</p>



							<p>“ÖZBEK KADIN HAKLARI DERNEĞİ” Tomonidan tashkil etilgan  “Leader ayollar” klubi a’zosi  “Barqaror taraqqiyot Xotin qizlarning o’rni” xalqaro konferensiya qatnashchisi  “Toshkent global forum” valantyor tarjimon  “Yedi Yildiz” ayollar Forumu valantyor tarjimon  Referendum valantyor tarjimon  Saylov -2023 valantyor tarjimon  Jizzax viloyati G’allaorol tumani yoshlar va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha yoshlar maslahatchisi  Toshkent davlat sharqshunoslik universitet Talabalar asatsatsiyasi a’zosi  UzLiDeP tomonidan tashkil etilgan “Yosh olimlar ligasi” a’zosi  Toshkent davlat sharqshunoslik universitet “Sharq yulduzi” teatr jamoasi a’zosi  UzLiDeP tomonidan tashkil etilgan "Yosh siyosatchilar ligasi" a’zosi</p>
<b>SHARQ FILOLOGIYASI VA TARJIMASHUNOSLIK FAKULTETI</b>							
	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Utkurova Gulzoda Qaxramon qizi	2004.17.07	Filologiya va tillarni o’qitish: malay tili	3-kurs		<p>2022-yil O'zbekiston bosqichida o'tkazilga Malay notiqlik san'ati tanlovining  3-o'rin sohibasi.  2023-yil Xalqaro Malay notiqlik san'ati tanlovining  2-o'rin sohibasi</p>

							<p>2022-yil Afsonaviy yoshlar forumining "The best delegate" unvoniga sazovor bo'lgan.</p> <p>2022-yil 26 - martda Tashabbus forumining Zakovat intellektual o'yinning faol a'zosi nominatsiyasi.</p> <p>2023-yil Oltin qanot EVH ning Mart oyida bo'lib o'tgan forumida " The best delegate ".</p> <p>Climate Science Olympiad 2023 da semi-finalist.</p>
--	--	--	--	--	--	--	--